

O'SPIRINLIK DAVRIDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING PAYDO BO'LISHI EMOTSIONAL O'ZGARISH SIFATIDA

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 2 -bosqich
ijtimoiy fanlar fakulteti, psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi*

Muxamedova Madina Turdiboy qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'spirinlik davrida agressiv xulq-atvorning shakllanishi emotsional o'zgarishlar jarayoni bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etilgan. Tadqiqotda shaxsning psixik rivojlanishida gormonal o'zgarishlar, ijtimoiy muhit omillari hamda hissiy beqarorlikning agressiv reaksiyalar paydo bo'lishiga ta'siri o'rganilgan. O'spirinlarning emotsional holati, o'z-o'zini anglash darajasi va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik aniqlangan.

Kalit so'zlar: o'spirinlik davri, agressiv xulq-atvor, emotsional o'zgarish, psixik rivojlanish, ijtimoiy muhit, hissiy beqarorlik, profilaktik yondashuv, moslashuv jarayoni.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование агрессивного поведения в подростковом возрасте в тесной связи с процессом эмоциональных изменений. В исследовании рассматривается влияние гормональных изменений, факторов социальной среды и эмоциональной нестабильности на возникновение агрессивных реакций в процессе психического развития личности. Определена взаимосвязь между эмоциональным состоянием подростков, уровнем самосознания и показателями социальной адаптации.

Ключевые слова: подростковый возраст, агрессивное поведение, эмоциональные изменения, психическое развитие, социальная среда, эмоциональная нестабильность, профилактика, адаптация.

Annotation: *This article analyzes the formation of aggressive behavior during adolescence in close connection with the process of emotional changes. The study examines the influence of hormonal changes, social environment factors, and emotional instability on the emergence of aggressive reactions in the course of personality development. The interrelation between adolescents' emotional states, self-awareness levels, and social adaptation indicators has been identified.*

Keywords: *adolescence, aggressive behavior, emotional changes, psychological development, social environment, emotional instability, prevention, adaptation.*

KIRISH

Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Biroq yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora tadbirlar hamda bu sohaga berilayotgan katta e'tiborga qaramay, o'smir-yoshlar o'rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo'lmagan illatlarning ko'payishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda jahon miqyosida oilaviy munosabatlar, xususan, o'smirlik yoshidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolar va ularning kelib chiqish sabablarini o'rganish masalalari dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. O'spirinlarda agressiv xulq atvorning shakllanishi va rivojlanishining sabablarini qarab chiqadigan bo'lsak. Bu iboraga taalluqli bo'lgan salbiy-xulq atvorlarning paydo bo'lishi o'smir davridagi bolalardagi og'ir iztirob noqobil oila, spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi ota-onalar, shavqatsiz kaltaklash, tabiiy ofat, va kambag'allik,

oiladardagi ajrim xolatlari kabilar ularni psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi deb ayta olamiz. Bu borada o'smirlarning ota - onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti asosan ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilganligi sababli qo'llab -quvvatlashlariga ehtiyoj sezilarli darajada kuchli bo'ladi. Ota onalar bilan bo'lgan faoliyat o'smirlarga kattalarni yaxshiroq tushinishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar xaqida kattalar bilan bo'lishishga katta extiyoj sezadi, lekin buni xech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlashga xarakat qilmaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomila –munosabatiga qattiq norozilik bildirishga kuchli darajada harakat qiladi. O'smirlar muloqoti nihoyasida o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. Qayd etib o'tilgan yo'nalganlik albatta kattalarning ham muloqot va munosabatda mavjud, lekin ular kattalarnikidan o'z emotsionalligi bilan farqlanishinin kuzatishimiz mumkin. Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir yoshidagi o'quvchilarda «Biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustaxkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga egadir. O'smirlik davrida do'st juda qadimli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga extiyoj sezadilar. Bu extiyoj o'smir do'stlarning so'rashishi va ko'rishishlarida (qo'l berib, quchalab ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga xarakat qilishlarida namoyon bo'ladi. Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, umumta'lim maktabi o'smir yoshli o'quvchilarining shaxs bo'lib shakllanishdagi, birgalikdagi xarakatlarini o'zi inson qalbida va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

O'spirinlardagi agressiya bugungi kunda ko'p kuzatiladigan muammolardan biri hisolanadi. O'smirladagi aggressivlik holati ko'pchilik kichik yoshdagi bolalarga xos bo'lib, ko'p hollarda agressiv xatti-harakat o'tish davrida kuzatiladi. Balog'at yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro'baru bo'ladi, natijada uning xatti harakatlarida agressiya elementlari kuzatila

boshlaydi. Agressiya – bu odamlar, guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmuid. O'smirlardagi agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi, ularning sabablari va oqibatlari, korreksiya qilish usullari haqida tushunarli qilib yoritib berilgan. Agressiv xulq - shaxsning ma'naviy buzqlikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan - ochiq salbiy ta'sir o'tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g'ayriinsoniy xususiyatdir. O'smirlarda agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik autoagressiya (bunday holat shaxsdagi patologik o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi) deb ataladi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko'rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo'ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan shaxslarda agressiv xulq kuchli namoyon bo'ladi. Agressiv xulq nafaqat alohida shaxslar, balki butun davlatlarga ham xos bo'lishi mumkin. Binobarin agressor — agressiyaning sodir etgan kuch yakka shaxs, shaxslar guruhi, siyosiy-mafkuraviy markazlar, davlat yoki bir necha davlatlar bo'lishi mumkin.

XX asrning 30 – yillarida fashistlar hukmronlik qilgan Germaniya ana shunday tajovuzkorlik xususiyatlari bilan insoniyatga katta talofatlar keltirgan. Bugungi kunda esa dunyodagi terroristik va ekstremistik markazlar agressiya harakatlari bilan odamzod boshiga yangi-yangi fojialar keltirayotganini ko'rishimiz mumkin. G'arbdagi ayrim mafkuraviy markazlar esa jahondagi yosh rivojlanish yo'lga kirgan mamlakatlarga informatsion usullarda tazyiq o'tkazish orqali o'zining agressiv xulqini namoyon etmoqda.

Ko'pincha, ota-onalar 5-6 yoshli bolaning tajovuzkor xatti-harakatlarini payqashadi. Bu o'zini turli yo'llar bilan namoyon qilishi mumkin, masalan, haddan tashqari teginish, kattalar va bolalar bilan janjallashish tendentsiyasi va beparvoliklar bilan namoyon bo'ladi. Bunday o'smirlarning

ota-onasining vazifasi uning tajovuzkorligining sababini tushunish, bunday hatti-harakatni hech narsa bilan kamaytira olmaydi. Yoshbolalardagi tajovuz oiladagi muammolar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Shaxsning rivojlanishida bolalar o'sib-ulg'aygan muhit katta ahamiyatga egadir. Bolalar o'zlarining xulq-atvorini yaqin odamlarning, ya'ni ota-onalar va qarindoshlarning xatti-harakatlariga asoslanib shakllantirib borishadi. Bolalarga nisbatan tajovuzkorlik ko'rsatish shart emas, ota-onalar tez-tez o'zaro janjal qilishlari kifoya bo'ladi. Ko'pincha 5-6 yoshli bolalar ota-onalariga qarab, o'zlarining xatti-harakatlar modelini shakllantiradilar. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiylashuv – individning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni va faolligi bo'lib, bu o'z navbatida muloqot va faoliyatda namoyon bo'ladi. Ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatdagi turli o'zgarishlar va maqsadga yo'naltirilgan tarbiya natijasida stixiyali tarzda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiylashuv jarayoni turli psixologik ilmiy maktablar turlicha tahlil qiladilar: 1)neobixeviorizm namoyandalarining fikricha, ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy o'rganishdir; 2)interaktsionizm vakillarining fikricha, o'zaro ta'sirlar natijasi; 3) gumanistik psixologiya vakillarining ta'riflashicha, «Men» kontseptsiyasining namoyon bo'lishidir. Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan dastlabki nuqtai nazarlar ichida U.Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning «inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi»,degan qarashlari mavjud. O'smirlarda agressiv xulq-atvor haqidagi fikr mulohazalar XX asrning boshlarida frustratsiya nazariyasi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgandir. Unga ko'ra, agressivlik frustratsiyaning oqibati deb qaralgan. Bunday qarashni birinchi bo'lib J.Dollard ilgari surdi. Ammo, ushbu ikki xil nuqtai nazar ham amaliyotda o'z tasdig'ini topma olmadi.

O'smirlarda agressiv xulq-atvor xususidagi yana bir nuqtai nazar L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida bayon qilingan. Unga ko'ra, maqsadga yo'naltirilgan. Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar maktab o'quvchilari orasida soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo'lmoqda . Maktabdagi o'smirlarda agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'pqirrali jarayon bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazdi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta'sirida shakllanishi aniqlangan . Maktabgi o'smirlarda agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdi:

1. Nosog'lom oila muhiti ya'ni ba'zi oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikning mavjud . emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga sabab bo'ladi. O'smir bolalardagi agressivlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning ta'sir darajasiga ham bog'liq hisoblanadi.

2. O'smirlarda tengdoshlar guruhiga bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari, sinfdoshlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradi . Ko'pgina hollarda o'smir bolalar tengdosh va do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv tutishga urinishadi. Haddan tashqari agressiv bolalar esa o'ztengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar o'zini xo'rlangandek his qilib, o'zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Shu o'rinda bu esa muammo ustiga muammo tug'dirmasdan qolmaydigan vaziyat hisoblanadi.

3. Ommaviy axborot vositalari- bugungi kunda o'smir bolalarning agressivligini kuchaytirishga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof qilindi. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga ta'sir qilayotganligi mutaxassislar

tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning ta'siri ham o'ziga xosligi inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Maktab bolalari internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ'ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Maktab o'quvchilari orasida agressiv hulq-atvorning bartaraf etishda, avvalo shu narsa ko'zga tashlanadiki har qanday holatda ham bolalarni be'etibor qoldirish kerak emas, ayniqsa maktab o'quvchilarini, o'smir yoshlarni, chunki ular huddi endi o'sib kelayotgan novda kabi uni qaysi tomonga shakllantirsa shunday shakllanib o'sadi. O'quvchilarda agressiv xulq-atvorni yo'qotish yoki oldini olishdagi birinchi mexanizm bu ota-ona va maktab va o'qituvchi orasidagi to'g'ri yo'lga qo'yilgan aloqalar mexanizmi hisoblanadi. Bu mexanizm yo'lga qo'yilsa bolalar hech bir vaqt o'zlari be'etibor qolishmaydi, keyingi mexanizm bu – sog'lom muhit mexanizmi. Bunda oiladagi muhit sog'lom bo'lishi kerak, bolalar bo'sh vaqtida nima bilan band, o'rtoqlari kim, vaqtini kim bilan nimlarga sarflayabdi, internetdan nimalar uchun foydalanyabdi kabi savollarga oilada faqatgina sog'lom muhit tarzi mavjud bo'lgandagina ota-onalarimiz javob topa olishadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra yana bir tendensiya ko'zga tashlanadiki, agressivligi yuqori bo'lgan o'smirlar ko'p hollarda ekstremal ravishda o'z-o'zini juda yuqori yoki juda past baholash xususiyatiga egadir. Noagressiv bolalarga esa o'zini adekvat baholash xarakterlidir. Voyaga yetmaganlarning deviant hulq-atvori - katta yoshdagilarning og'ma hulq-atvori qonuniyatlariga muvofiq emasligini qayd etish zarurdir. Jumladan, kriminologiya umum tomonidan qabul qilingan hulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma'qullanadigan yoki umumiy e'tirof etilgan hulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma'qullanadigan yoki umumiy e'tirof etilgan hulq-atvor normalariga zid bo'lgan maxsus qadriyatlar

tizimi mavjudligi bilan izohlanadi. Biroq , shu o'rinda voyaga yetmaganlarga tatbiqan bunday yondashuv hamisha ham to'g'ri emas. Moddiy jihatdan yetarlilik , ota-onalarning yuqori ijtimoiy mavqei bolalarning ijtimoiy normalarga rioya qilishning kafili bo'la olmaydi.

Deviant hulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga yetmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy ta'sir ko'rsatishdir. Bizga ma'lumki jamiyatimizda sodir qilinayotgan ko'plab jinoyatlar, jumladan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganishda voyaga yetmagan jinoyatchilarning ma'naviy-ahloqiy shakllanishiga ta'sir etuvchi salbiy holatlarni tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, shu o'rinda bir savol tug'iladi, bunday jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, tub mohiyati nimada? Shu o'rinda biz ushbu jinoyatlarning sodir etilishidagi shart sharoitlarga, sabablarga to'xtalib o'tamiz. Voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan juda ko'pchilik shug'ullanadi. Bular - ota-onalar, oilani katta yoshdagi boshqa a'zolari , maktabgacha bo'lgan, maktab o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari muassasalaridagi o'qituvchilar jamoat tashkilotlari va boshqalardir. Shu o'rinda, ana shu voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ular tarbiyasidagi ta'siri kelajakda o'z ta'sirini o'tkazadi.

Oilalardagi ota yoki ona ichuvchi yoki ma'naviy ahloqsizlik bilan ajralib turadi. Bizning nazarimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash hamda uning oldini olish birinchi navbatda oila ahloqini qadriyatlarimizga moslashtirishdan boshlashga to'g'ri keladi. Shu o'rinda turli xil huquqshunos olimlarning bu boradagi turlicha qarashlari mavjud bo'lib, bularning barchasi voyaga yetmaganlar tomonidan ahloqsizlik xatti harakatlarini sodir qilishga oilani roli muhimligi haqida so'z yuritiladi. Jumladan, V.Ya. Rubalskaya tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 47 % voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi ota onaning salbiy

ta'siri yoki befarqligining, 14,8 % oilada hamjihatlik yo'qligining, 38,3% ota yoki onani yo'qligining, 23,5 % kattalarning loqaydligi tufayli jinoyat sodir etishning asosini tashkil etadi. O'smir yoshdagilarga xos xususiyat shundaki, tashqi jihatdan va o'zda'volariga ko'ra bu katta yosh, ichki xususiyatlari va imkoniyatlariga ko'ra esa, ular hali boladir. O'smirlarning erkalashga, o'ziga e'tibor berilishiga moyilligi, o'yin qaroqligi mana shu bilan bog'liq. Shu bilan birga o'smirlarda o'zining katta yoshli bo'layotganligini his etish bilan birgalikda ong, o'z qadr qimmatini his etish, jinsiy mansubligini anglash uyg'onadi va faol shakllanadi.

O'smirlik yoshi o'zida har xil ruhiy jarohat yetkazadigan omillar ta'siriga tutish xavfi yuqori darajada bo'lgan shart-sharoitlar jamini ham ifodalaydi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlar bo'yicha ota-onalar o'rtasidagi urush-janjallar, o'smirning nuqtai nazariga ko'ra ularda o'smirni va atrofdagilarni kamsitadigan nuqsonlarning mavjudligi, o'smirga nisbatan haqoratlovchi munosabat bo'lish, unga ishonmaslik yoki uni hurmat qilmaslik mana shunday kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardandir. Bularning barchasi bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonini qiyinlashtiradi va mana shu asosda ularning hulq-atvorida har xil chetga chiqishlarni keltirib chiqarishga zamin yaratadi. Bizning fikrimizcha o'smir huquqlari o'zida butun insoniyatning qadr-qimmatini mujassam etadi. Bu degani bolalik - inson shaxsining rivojlanishida noyob, muhim davr demakdir. Inson huquqlari avvalo, bolalar huquqlaridan boshlanadi. Har qanday jamiyat va barcha insoniyatning kelajagi o'ta yuqori darajada yosh avlodning moddiy va jismoniy rivojlanish darajasiga, uning inson huquqlarini shaxs va jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tushunishiga, shuningdek, o'z taqdiri hamda o'z harakatlari uchun ma'suliyatiga bog'liq. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat poydevori qurilmoqda. Bunda davlat qurishni huquqiy savodxon, huquq madaniyatini mustahkam egallagan yosh avlod amalga oshiradi. Buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog'i zarur. Shu sababli

yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so'zsiz bo'ysunishi madaniyatiga ega bo'lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Biz bugungi kunda kuzatishimiz mumkin shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, uning yechimini topishning yana bir yo'li aynan ta'lim va tarbiya bilan yoshlarni shakllantirishimiz kerak ekanligiga amin bo'lamiz.

O'smirlardagi agressiya nafaqat pedagoglar va psixologlar, balki butun bir jamiyat uchun birmuncha yuqori darajada turuvchi muammolardan biri hisoblanadi. Inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, hayotning yuqori ritmi, shaharlarning zichligi, ortib borayotgan axborot vositalari insonlar psixik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. O'smirlar jinoyatchiligining o'sib borayotgan oqimi axloqning tajovuzkor shakliga moyil bolalar sonining ortishi bunday xavfli ko'rinishlarni uyg'otuvchi psixologik sharoitni o'rganishni birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan vazifa sifatida ilgari surdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR

1. Karimova, V. M. (2004). Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi.
2. G'oziev, E. (2002). Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Jabborova, M. (2018). O'spirinlik davrida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi. Psixologiya va pedagogika jurnali.
4. Bushman, B. J., Anderson, C. A. (2001). Is it time to pull the plug on the hostile versus instrumental aggression dichotomy? Psychological Review, 273–279.
5. Steinberg, L. (2014). Age of Opportunity: Lessons from the New Science of Adolescence. Boston: Houghton Mifflin Harcourt.